

BOSHLANG'ICH SINFLAR TA'LIMIDA TOPISHMOQLARNING AHAMIYATI

Norbekova S

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda xalq og'zaki ijod na'munalaridan bo'lmish topishmoqlardan foydalanish. Shuningdek, topishmoqlarning o'quvchilar og'zaki nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Topishmoq metodi qo'llanganda har bir o'quvchining partasi ustiga qog'ozga yozib tarqatish ham mumkin. Bolalar o'z jumboqlari ustida mustaqil bosh qotiradilar, o'zlarining to'g'ri deb bilgan javobini topgach har bir o'quvchi o'ziga berilgan topishmoqni baland ovozda tengdoshlariga eshittirib o'qib beradi. O'qituvchidan tashqari boshqa bolalar ham topishmoq yuzasidan tezkor fikrlashlari so'raladi. Bir nechta javob tinglangach kartochka egasi ham o'z javobini aytadi. Shu tariqa navbatdagi bolalar bilan ketma-ket davom ettiriladi. Bunda bola shaxsan o'zi uchun atalgan jumboqni chuqurroq o'ylashga, tengdoshlari oldida o'zining to'g'ri deb bilgan javobini ifoda etishga harakat qilgan holda o'z ishiga yondashadi*

Kalit so'zlar: *Xalq og'zaki ijodi, topishmoq, mantiqiy fikrlash, jumboq, taqqoslash, esda saqlash, solishtirish, fikrni og'zaki bayon qilish, savol-javob, xotira, tafakkur.*

Insonni har jihatdan mukammal, salohiyatli, el-yurt uchun munosib va komil inson bo'lib voyaga yetishida xalq topishmoqlarining ham o'z o'rnini va roli beqiyos. Topishmoqlarda xalq hayoti, turmush darajasi, madaniyati, urf-odatlarini malum darajada talqin etiladi. Bolalarning dunyoqarashini shakllanishiga, ongining o'sishiga, nutqini boyishiga va fikrlash doirasini kengayishiga topishmoqlar katta ahamiyat kasb etadi. Bilim olishga bo'lgan ishtiyoq va qiziqishini oshiradi. O'rtaga tashlangan jumboq ustida o'ylay turib, fikrlash doirasi kengayadi, estetik dunyoqarashi shakllanadi, hayotni har tomondan kuzatib tahlil qilishga odatlanadi.

Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinf yoshida o'qituvchining dars o'tish mahorati, jalb qila olish xususiyati va darsga turli qiziqarli yo'l va usullarni qo'llay olishi, ilg'or pedagogik tajribalardan ijobiy foydalana olishi juda muhimdir. O'qituvchi qaysi darsda qaysi yoshdagi o'quvchiga qay turdagi darsni tashkil etish lozimligini bilganda uning darsi ijobiy, samarali kechadi. Biz nima uchun bolalarning ta'lim-tarbiyasi uchun aynan topishmoqlardan foydalanish lozimligi haqida aytdik. Chunki, topishmoqda bola uchun tanish bo'lgan jarayon, predmet yoki hodisa majoziy jihatdan ta'riflangan bo'lib, bolani o'yga toldiradi. Aqlini charxlashga, mantiqiy fikrlashga, mulohaza qilishga xizmat qiladi va kezi kelganda to'g'ri javobidan zavq hissini ham tuya biladi. Lekin o'qituvchi dars jarayonida topishmoqni shunchaki aytib o'tishi ham yaramaydi. Shunchalik g'ayriodatiy, qiziqarli qilib topishmoqni boshlash kerakki, o'quvchi darsning aynan shu qismini intiqib kutsin va bu jarayonda faol ishtirok etishga jon-jahdi bilan harakat qilsin.

O'qituvchi topishmoqning javobini topishni dolzarb va qiziqarli jarayon sifatida baholashi kerak. Shundagina bolalar bu ishga mas'uliyat va maroq bilan yondashadilar. Topishmoqning javobini topgan bolani so'z yoki kartochkalar bilan rag'batlantirish ayni muddao sanaladi. Xalqimizda topishmoqni javobini topolmaganda topishmoq aytuvchiga "shahar berish" iborasi ishlatiladi. O'qituvchi shu an'anani qandaydir zamonaviy talqinda o'z darsiga olib kira olishi kerak. Dars zerikarli bo'layotgan paytda o'qituvchi qiziqarli topishmoq orqali darsni olib borsa darsda jonlanish va o'quvchilarda tetiklik yuzaga keladi. To'g'ri javob topgan o'quvchilar zavq oladi, qolganlar esa yanada diqqatliroq va tezkor bo'lishga harakat qilishadi. O'qituvchi "choydagi shakarni qaysi qo'l bilan aralashtirgan ma'qul" deya jumboqni o'rtaga tashladi deylik. Ko'pgina o'quvchilar o'ng yoki chap qo'l javobini berishadi. Aslida choyni qoshiq ushlagan qo'lda aralashtirmoq lozim. Ba'zi bilag'on o'quvchilar bu topishmoqni javobini topishlari mumkin, ammo qolganlari kutilmagan javobdan birmuncha hayratlanish va zavq tuyishadi. Keyingi safar chuqurroq o'ylab ko'rishni maqsad qilib qo'yishadi. O'qituvchi topishmoq aytganda o'quvchilarning javobini tinglashda ham o'ziga xos talablari va uslublari bor. Bunda har bir bolaning javobi e'tiborga olinishi, xato javob berilgan taqdirda ham bola psixologiyasiga salbiy ta'sir o'tkazmasligi kerak. Chunki bolaning javobi oltinga teng, u birovni turtkisi, fikri bilan emas o'zining dunyoqarashini aytyapti. Aksincha, bolani to'g'ri fikrlashiga ozgina turtki bo'lish kerak, xolos. Topishmoq va unga javob topishning muhim jihati ham o'quvchilarni o'z fikrini ifoda etishga, qaror va mulohazalarini izohlab berishga, o'rgatuvchi bilan o'zaro suhbat qurishga o'rgatishdir. Bu nafaqat maktabda balki bog'cha davrida va uyda ham bo'lishi mumkin, albatta. O'rgatuvchi boladan nega aynan shu javobni berganligini so'raganda bola buni sababini izohlab berish orqali qat'iylik, o'z fikrlari va mulohazalarini himoya qila olishlik, irodalilik kabi ijobiy xislatlarga ega bo'ladi. Bola bilan qanchalik ko'p suhbat olib borilsa, uning nutqi shunchalik boy va teran, voqelikni bilish qobiliyati shunchalik kengroq bo'lar ekan.

Topishmoq metodi qo'llanganda har bir o'quvchining partasi ustiga qog'ozga yozib tarqatish ham mumkin. Bolalar o'z jumboqlari ustida mustaqil bosh qotiradilar, o'zlarining to'g'ri deb bilgan javobini topgach har bir o'quvchi o'ziga berilgan topishmoqni baland ovozda tengdoshlariga eshittirib o'qib beradi. O'qiguvchidan tashqari boshqa bolalar ham topishmoq yuzasidan tezkor fikrlashlari so'raladi. Bir nechta javob tinglangach kartochka egasi ham o'z javobini aytadi. Shu tariqa navbatdagi bolalar bilan ketma-ket davom ettiriladi. Bunda bola shaxsan o'zi uchun atalgan jumboqni chuqurroq o'ylashga, tengdoshlari oldida o'zining to'g'ri deb bilgan javobini ifoda etishga harakat qilgan holda o'z ishiga yondashadi. Yoki aksincha, sinf doskasiga topishmoq matni katta harflarda yozilgan qog'ozni osib bolalarga uni ifodali o'qib, tushunib daftarlariga yozish va javoblarini aytish so'ralishi ham mumkin. Bu usulda ularning ifodali o'qish bilan birgalikda chiroyli yozish, mantiqiy fikr yuritish qobiliyatlari rivojlanadi.

Topishmoqning bir yoki bir necha predmetli hamda she'riy, nasriy ko'rinishlari bo'lishi mumkin. O'qituvchi buni o'quvchining yoshiga va ruhiy holatiga mos holda taqdim etishi

kerak. Bog'cha yoki endigina maktab ostonasiga qadam qo'ygan o'quvchilar uchun bir necha predmetli topishmoqlarni o'rtaga tashlash yaramaydi. Asta-sekinlik bilan soddalikdan murakkablikka tomon o'sib borish lozim. Shunda boshlang'ich sinflar uchun qiyinchilik tug'dirmaydigan ta'lim berish mumkin bo'ladi. O'qituvchi topishmoqni aytgandan so'ng topishmoq yuzasidan o'quvchilar bilan savol-javob ham olib borishi mumkin. Bu bolalarning topishmoqdagi yashirin jihatlarni yaxshiroq anglab yetishlariga, so'rallyotgan predmetga yaqinroq fikr yuritishga hamda ravon so'zlashga o'rganadilar. " Yer tagida oltin qoziq u hammaga bo'lar oziq" topishmog'ini olaylik. O'qituvchi

- Oltinni rangi qanaqa bo'ladi?

- Qoziq qanday shaklda?

- Biz iste'mol qilishimiz mumkin ekan kabi savol va gaplar bilan o'quvchiga yuzlanganda o'quvchi javobni topishi osonroq bo'ladi. Javob topilgandan so'ng o'qituvchi bosh qotirilgan narsa, predmet ustida suhbatni davom ettirib u haqida biroz malumot ham berib o'tishi lozim sanaladi. Masalan, sabzi poliz ekini sanaladi, uni xomligicha ham pishirib ham iste'mol qilish mumkin, o'zbek milliy taomi bo'lgan palovni sabzisiz tayyorlab bo'lmaydi, sariq, qizil ranglari bo'lishi mumkin. Bunday dars jarayonini tashkil qilish o'quvchilar ko'proq bilim olishlari uchun xizmat qiladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mantiqiy tafakkurni o'stirishda topishmoqlarga javob topish matematik masala, misol yechish bilan teng kuchga ega. Shuning uchun ham o'quv jarayonida ertaklar bilan bir qatorda topishmoqlardan ham keng foydalaniladi. Bu esa, albatta, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Madiyarov 1. Tez aytish va topishmoqlar - nutq o'stirishda o'rni. "O'zbek tili va adabiyoti ta'limi" ilmiy jurnali. 2019.B 59

2. Boymurodova G, Sattorova X " O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma" " O'qish kitobi 2- sinf. Toshkent 2015. B 27

3.Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. - Toshkent: Adabiyot jamg'armasi, 2006-216 b